

## O'ZBEK VA INGLIZ XALQ ERTAKLARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHLARI

Sobitov A'zamjon Tursunpo'lot o'g'li,  
NamDU 2-bosqich magistranti

### SIMILARITY AND DIFFERENCE BETWEEN UZBEK AND ENGLISH FOLK FAIRY TALES

Sobitov Azamjon Tursunpulat oglu,  
NamSU 2nd stage master

**Annotation:** This article discusses the changes that occur during the translation of English folk tales into Uzbek. At the same time, the similarities and differences between Uzbek and English folk tales are discussed, as well as the role and significance of the fairy tale genre in the upbringing of children.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz xalq ertaklarining o'zbek tiliga tarjima qilinganda sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqida bahs qilinadi. Shu bilan birga o'zbek va ingliz xalq ertaklarining o'xshash va farqli tomonlari hamda ertak janrining bolalar tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются изменения, происходящие при переводе английских народных сказок на узбекский язык. При этом обсуждаются сходства и различия узбекских и английских народных сказок, а также роль и значение жанра сказки в воспитании детей

O'zbek bolalar folklori alla, erkalama, ovutmachiq, yalinmashiq, chandish, tez aytish kabi rang-barang janrlardan tarkib topib, har bir janrning bola hayoti va tarbiyasida muhim o'rni mavjud. Zero, folklorshunos O.Safarov ta'kidlaganidek: "Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va musiqali poetik janrlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Uni yaratishda kattalar ham, bolalar ham baravar hissa qo'shgan" (O.Safarov,2010).

Ko'rinadiki, bolalar folklori, avvalo, muhim tarbiya vositasi sifatida ahamiyatli. Ayniqsa, xalq ertaklarining bola tarbiyasi va dunyoqarashining shakllanishida o'rni nihoyatda katta. Ertaklar xalqning azaliy o'y-xayollari, tilak-istaklari, kelajak haqidagi orzulari o'laroq yuzaga kelib, bola xayolotini, tafakkurini milliy qadriyatlar va a'nanalar bilan boyitadi. Shu bois, ota-onalar hamisha bola tarbiyasida xalq ertaklariga tayanib keladi.

Bu haqda ertakshunos Jumaboyev shunday deydi: "Ertak xalqning ulug'vor g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, diniy, axloqiy ideallari o'ziga xos badiiy aks ettirgan mustaqil tur. Ertak hech qachon ermak emas, hamma vaqt muhim ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan hodisadir" (M.Jumaboyev,2006).

Shu sabab barcha xalqlar pedagogikasida bola tarbiyasida ertakning o'rniga alohida e'tibor qaratiladi. Xorijlik mutaxassis Brostormning fikriga qaraganda: "Ertak –bu tajriba, fikr va his-tuyg'ularni ifoda etishning haqiqiy insoniy usulidir" (S.Brostorm,2002).

Ko'rinadiki, ertaklar umumjahon folklorida tarbiyaning bosh dasturi deb qaraladi. Shu sabab jahon xalq ertaklari o'zbek tiliga, o'zbek xalq ertaklari boshqa xorij tillariga doimiy ravishda tarjima qilinib keladi. Xuddi shunday ingliz tilida chop etilgan jahon ertaklarining ko'pchiligi o'zbek tiliga mohir tarjimonlar tomonidan o'girilgan.

Ertaklar umumbashariy tuyg'ular xosilasi o'laroq yuzaga kelgani bois barcha xalq ertaklari qatori ingliz va o'zbek ertaklarida ham umumiy jihatlari talaygina. Jumladan, har ikkala xalq ertaklarida syujet, voqealar tizmasi, epik qahramon tasviri va motiv hamda g'oyalarning mushtarak va o'xshashligiga guvoh

bo'lamiz. Ayniqsa, o'gay ona va yetim qiz motivi har jihatdan o'zbek, ingliz va boshqa xalq ertaklarida nihoyatda o'xshash.

Binobarin, o'zbek xalqining "Zumrad va Qimmat", ingliz xalqining "Sindrella", rus xalqining "Zolushka" ertaklarida mohiyat birligini kuzatsa bo'ladi. Biroq ertaklardagi g'oya bir bo'lsada ulardagi didaktika har bir xalqning o'z dunyoqarashi, madaniyati, milliy qadriyatlari asosida shakllanadi. shu jihatdan jahon xalqlari ertaklaridagi o'xshash va farqli jihatlar alohidalik kasb etadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek ertaklarida ham bu jihatlar o'ziga xosligini ko'rish mumkin.

"Zumrad va Qimmat" ertagining yetakchi obrazlari o'gay ona, Qimmat va Zumrad. Qimmat obrazi ertakda taniq, qo'pol va dangasa, kun bo'yi ovqat yer va bo'lar-bo'lmasga urushqoq sifatida tasvirlangan. Zumrad esa, aksincha, aqlli, chiroyli va muloyim qiz sifatida tasvirlanadi. Endi xorijiy adabiyotlarda ko'plab uchraydigan yoki boshqa manbalarda uning alternativi sifatida uchraydigan "Zolushka" ertagini olaylik; mazkur ertakda ham, o'gayb ona yovuz, qattiqqo'l va ikkiyuzlamachi, o'gay opalar esa yalqov, ichiqora harakterli obrazlar sifatida va ota – yuvosh, itoatkor harakterli obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Zumrad – juda mehribon, chiroyli, ishchan, saxiy, maftunkor va boshqa ijobiy fazilatlarga ega obraz sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bu esa har ikki ertakdagi o'xshashlikka misol bo'ladi. Har ikki ertakda ham bola uchun yetkazib beriladigan ma'no-mazmun bir xil, ya'ni bizni insondagi ijobiy fazilatlarni qadrlashga, tashqi ko'rinishga emas, balki ichki go'zalikka e'tibor qaratishga, yaxshilik har doim mukofotlanishiga o'rgatadi. Jumaboyevning qayd etishicha: "Bolalar o'zlari tinglagan ertaklari yordamida mehnatkash bo'lishni va mehnatni sevishni o'rganadilar" (M.Jumaboyev, 2006).

Har ikki ertakdagi voqealar rivoji bir-biridan qisman farqlanishi mumkin, lekin ertakning maqsadi bola ongida estetik zavq ulashishi, boshqacha qilib aytganda yaxshilikka yetaklashi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'zbek va ingliz folklorida uchraydigan yana bir umumlashtiruvchi xususiyat bu ertakning yaxshilik bilan tugashi, ya'ni bolalarda yaxshilik hamisha yovuzlik ustidan g'alaba qozongan holda ijobiy yakun topishi haqida tasavvur uyg'otishidir. Barakayev, Safarov va Jamilovalarning fikriga ko'ra: "Ertaklar sujetning qiziqarliligi, sarguzashtlarga boyligi bilan birga o'z nihoyasida ezgulikning yovuzlik, oydinlikning qorong'ulik, haqiqatni nohaqlik, hayotning o'lim, aqllilikning nodonlik va to'g'rilikning egrilik ustidan g'alab qozonishini tarannum etadi" (R.Barakayev, O.Safarov, B.Jamilova, 2015).

Bolalar tomonidan sevib tinglanadigan yana bir ertak "Bo'ri va echki bolalari". Aksariyat manbalarda uni ingliz xalqertagi deb berilsada, aslida uning kelib chiqishi 1812-yilda chop etilgan "Grimm ertaklari" to'plamida ilk bor uchraydi. Nemischa "Der Wolf und die sieben jungen Greiblein" ya'ni "Bo'ri va yetti echki bolasi" nomida keladi. Mazkur ertak bizgacha bir qancha o'zgarishlarga uchrab yetib kelgan.

Ertakning asl variantida bo'ri echki bolalarini eshikni ochishi uchun "onangiz keldi, eshikni oching" deya echki bolalarini aldamoqchi bo'lganligi, echki bolalarini unga aldanmay, eshikni ochmaganliklari, bo'ri – ona echkining ovozi mashq qilgani, ona echkining tuyoqlariga o'xshash tuyoqlarni topib kelishi, uchinchi safara echki bolalarining eshikni ochishlari va bo'ring soat ichiga yashiringan echki bolasidan boshqa barchasini yutib yuborishi haqida so'z boradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ilk xorijiy ertaklarda ham kichik bir fantastika janriga oid elementlarni uchratish mumkin. Mazkur ertakning o'zbekcha tarjimada qo'shiq janridan foydalanilgani hamda ayrim elementar o'zgarishlarga qo'l urilgan holda uchratish mumkin.

Bunday ertaklarda hayvonlar xuddi inson kabi gapiradilar va turli xatti-harakatlarni amalga oshiradilar. Bunday ertaklarni bolalarga yetkazib berishda ingliz folklorida hma, o'zbek folklorida ham ertak aytuvchi imkon qadar hayvonlarning tovushiga taqlid qilgan holda aytib beradi. Bu ham har ikki xalq folklorining o'xshash tarafi hisoblanadi. Safarovning ta'kidlashicha: "Ertaklardagi hayvon obrazlari ko'chma ma'nodagi personajlar bo'lib, ular xuddi insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadilar; o'ylaydilar, gapiradilar, yaxshilarga-yaxshilik, yomonlarga-yomonlik tilaydilar", (O.Safarov, 2010).

Hozirgi texnologiya va telekommunikatsiyalar taraqqiy etgan zamonda yosh bolalarda telemultifilmga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Aksariyat multipanaramalar xorijiy multifilmlar yoki animatsion videoroliklar bo'lib, fantastika janriga ko'proq urg'u berilgan.

Bu esa milliy ertaklarning asta-sekinlik bilan yuqoridagi omillar sabab chetga surulib borayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Mazkur maslalaga oydinlik kiritish maqsadida 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan 30 nafar bola tanlab olindi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, 20 nafar bolalar ertakdan ko'ra multfilmga ko'proq moyilliklari borligi aniqlandi. So'rovnoma detallari bilan quyidagi jadvalda tanishish mumkin.

No:	Ertak	Multfilm
Ovoz soni:	10	20
4-8 yoshli bolalar:	6	7
8-12 yoshli bolalar:	4	13
Foiz:	33.3 %	66.6 %
Umumiy ko'rsatkich:	33.3 %	67 %

Yuqoridagi so'rovnomadani kelib chiqqan holda uzoq yillar mobaynida, ta'bir joiz bo'lsa, milliy "mahsulot" imiz hisoblangan ertaklarni animatsion roliklar, multfilm shaklida yaratib, multimedia orqali bolalarga yetkazib berish taklifi beriladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad: bolalar folklorini yanada taraqqiy toptirish hamda tarixiy, milliy me'rosimizni asrab qolishdir.

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ertak xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga ma'naviy va axloqiy yo'ldosh bo'lib kelishi, ijtimoiy axloq normalari shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ta'riflar bilan milliylikimizni dunyo sahnasiga chiqishda o'zbek milliy ertaklarimizni ingliz tiliga tarjima qilish va dunyo bolalariga yetkazib berish orqali oldimizda bolalar folklori sohasida yuksak natijalarga erishish vazifasi turadi.

#### **Foydalanilgan Dabiyotlar Ro'yxati**

1. M.Jumaboyev, "Bolalar adabiyoti va folklor", O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, "Adabiyot" jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2006.
2. S.Brostorm, "Children tell stories", European early Childhood Education Research Journal, Denmark, 2002.
3. M.Jumaboyev, "Bolalar adabiyoti va folklor", O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, "Adabiyot" jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2006.
4. R.Barakayev, O.Safarov, B.Jamilova, "Bolalar adabiyoti", "Turon Zamin Ziy" nashriyoti, Toshkent, 2015.
5. Ashliman.D.L, "The Wolf and the Seven Young Kids", University of Pittsburgh, 2002.
6. O.Safarov, "O'zbek xalq og'zaki ijodi", "Musiqqa" nashriyoti, Toshkent, 2010.
7. [www.ureader.ru](http://www.ureader.ru)
8. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
9. [www.ertak.uz](http://www.ertak.uz)
10. <http://uz.m.wikipedia.org>